O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
NORIN TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2021 - yil 26 - dekabr 361-6-83-Q/21 Norin tuman hokimligi

Norin tumanida 2022 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o`tkazish to`g`risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonunining 17-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizomga (keyingi o`rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022 yilda majburiy texnik ko'rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2022 yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo`lgan (haydovchining o`rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish

uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari-bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko'p bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo'lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo'lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko'rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazishning ilgari o'rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o'rinlarda - DYHXX) organlarida ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) vaqtida (birinchi marta ro'yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan transport vositalarining texnik ko'rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr- 31 oktyabrda o'tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko'rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o'tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko'rikdan o'tkazishda:

transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko'rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikasiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va

ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o`tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkaziladi hamda tegishli yig'im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko`rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o`tkazish tartibi to`g`risida nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021 yil 10 fevraldagi 112-son “Tumanda 2021 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida”gi qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosari S.Sidiqov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Ж.Нурматов**

Норин туман ҳокимининг
2021 йил 26 декабрдаги
361-6-83-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tumanda transport vositalarni texnik ko’rigini

o’tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi

D.Tursunov — Namangan viloyati IIB YXXB 2-tumanlar aro YXXB TNG katta inspektori,katta leytenant

Komissiya raisining o’rinbosari:

J.G’aybbulaev -tuman hokimining o’rinbosari

Komissiya a’zolari:

A.Abdulxodiyev -O’zbekiston Respublikasi transport vazirligi Namangan transport boshqarmasi boshlig’i

Z.Qosimov -Tuman agroinspeksiyasi bo’limi katta inspektori

Sh.Ahmedov -Tuman Mudofaa ishlari bo’limi boshlig’i

Q.Qo’chqorov -“Mahalla va oilani qo’llab

quvvatlash bo’limi boshlig’i
o’rinbosari

Норин туман ҳокимининг
2021 йил 26 декабрдаги
361-6-83-Q/21-сон қарорига
2-илова

Tumanda transport vositalarni texnik ko’rigini o’tkazish

J A D V A L I

T/r	Tashkilot, korxona, xo’jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko’rik o’tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko’rik o’tkazish joyi	Texnika soni (dona)
1	Mudofaaga ko’maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti	Haqqulobod shahar, Ye.Payg’ambarov ko’chasi	01.03.**2022** yil	O’zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko’rsatilgan joylarda	10
2	“Toshkent” MMTP (fermer xo’jaliklari bilan)	Norin tumani, Qo’rg’ontepa QFY	07.03.**2022** yil	O’zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko’rsatilgan joylarda	18
3	“Katta O’lmas” MMTP (fermer xo’jaliklari bilan)	Norin tumani, Yetti qashqa QFY	10.03.**2022** yil	O’zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko’rsatilgan joylarda	15
4	“G’alaba” MMTP (fermer xo’jaliklari bilan)	Haqqulobod shahar, Ye.Payg’ambarov ko’chasi	12.03.**2022** yil	O’zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko’rsatilgan joylarda	20

T/r	Tashkilot, korxona, xo'jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko'rik o'tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko'rik o'tkazish joyi	Texnika soni (dona)
5	"O'zbekiston" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Sho'ro qishlog'ida	14.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	20
6	"Bo'ston" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Toshloq qishlog'ida	17.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	23
7	"Xo'jaobod" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Xo'jabod qishlog'ida	19.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	21
8	"Oq-oltin" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Toshqin qishlog'ida	24.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	18
9	"A.Shamsiddinov" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, To'da qishlog'ida	26.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	18
10	"Norinkapa" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Norinkapa qishlog'ida	05.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	30

T/r	Tashkilot, korxona, xo'jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko'rik o'tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko'rik o'tkazish joyi	Texnika soni (dona)
11	"Paxtakor" MMTP (fermer xo'jaliklari bilan)	Norin tumani, Cho'ja qishlog'ida	28.03.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	10
12	"Norin" MTP DAJ, "Norinagrotexservis" MChJ	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	05.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	18
13	Tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	12.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	15
14	"Qishloqxo'jalikkimyo" AJ	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	02.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	20
15	"Norin Tola" AJ	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	04.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	20
16	Tuman yelektr tarmoklari korxonasi	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	07.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	23

T/r	Tashkilot, korxona, xo'jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko'rik o'tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko'rik o'tkazish joyi	Texnika soni (dona)
17	Tuman tibbiyot birlashmasi	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	12.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	21
18	Tuman Davlat sanitariya-yepidemiologiya markazi	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	14.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	18
19	Qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	16.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	18
20	Qurilish kasb-hunar kolleji	Norin tumani, Sho'ro qishlog'i	16.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	30
21	Ta'lim muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil yetish tuman bo'limi	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	19.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	10
22	Tuman kommunal obodonlashtirish boshqarmasi	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	23.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	4

T/r	Tashkilot, korxona, xo'jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko'rik o'tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko'rik o'tkazish joyi	Texnika soni (dona)
23	"Vodiygazta'minot" unitar korxonasi tuman filialı	Haqqulobod shahar, Navoiy ko'chasi	26.04.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	4
24	Tuman yo'l pudrat ta'mir foydalanish korxonasi	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	03.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	3
25	"Namangan pochtasi" XJ tuman filiali	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	17.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	1
26	Norin telekommunikasiya bog'lanmasi	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	17.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	1
27	Tumandagi "58-avtokorxona" MChJ	Haqqulobod shahar, Beruniy ko'chasi	20.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	15
28	Tuman hokimligi	Haqqulobod shahar, O'zbekiston ko'chasi	24.05.**2022** yil	O'zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko'rsatilgan joylarda	2

T/r	Tashkilot, korxona, xo’jaliklar, muassasalar nomlari	Tashkilot manzili	Texnik ko’rik o’tkazish sanasi va vaqti	Texnik ko’rik o’tkazish joyi	Texnika soni (dona)
29	Boshqa tashkilotlar		25.05.**2022** yil-31.05.**2022** yil	O’zR VMning 09.03.2021 y. 125-son qarori bilan tasd. Nizomning 29,30-bandlarida ko’rsatilgan joylarda	

Норин туман ҳокимининг
2021 йил 26 декабрдаги
361-6-83-Q/21-сон қарорига
3-илова

Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha

ChEKLIST

Norin tumani hokimining “Tumanda 2022 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish to`g`risida”gi qarori loyihasiga

Yo‘nalishlar	**Korrupsiyaviy omillar**	**Javoblar**				**Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi**
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor	-	yo‘q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	yo‘q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	-	yo‘q	+	
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi	bor	-	yo‘q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	yo‘q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi	bor	-	yo‘q	+	
	Davlat organi tomonidan o‘zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	yo‘q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	yo‘q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	yo‘q	+	
	Manfaatlar to‘qnashuvi	bor	-	yo‘q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	yo‘q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish	bor	-	yo‘q	+	
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	yo‘q	+	

Ma’muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi	bor	-	yo‘q	+	
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o‘rnatilishi	bor	-	yo‘q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi	bor	-	yo‘q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo‘q	+	
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	yo‘q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	yo‘q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	yo‘q	+	
Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	yo‘q	+	
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar	bor	-	yo‘q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	yo‘q	+	

Норин туман ҳокимининг
2021 йил 26 декабрдаги
361-6-83-Q/21-сон қарорига
4-илова

Norin tuman hokimligi huquqshunosi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o`tkazish yuzasidan

X U L O S A

2020 yil 25 dekabr Norin tumani

“Normativ-huquqiy hujjatlar to`grisida”gi Qonunga muvofiq Norin tuman hokimining “Tumanda 2022 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish to`g`risida”gi qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o`tkazilganda quyidagilar aniqlandi,

Qaror loyihasi normativ hususiyatga ega bo`lib, O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 21, 22-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2013 yil 1 fevraldagi 29-mh-son buyrug`i bilan tasdiqlangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o`tkazish qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi Qoidalar (O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 18 noyabrda ro`yxatdan o`tkazildi, ro`yxat raqami 3333) ijrosini tashkil etish hamda ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Jumladan, “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga asosan hokim rejalashtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo`jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo`l xo`jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko`rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o`z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etishi belgilangan.

Shuningdek, “Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi, ikkinchi xatboshisida O`zbekiston Respublikasi hududida

foydalanishda bo`lgan va belgilangan tartibda ro`yxatga olingan transport vositalari majburiy texnik ko`rikdan o`tkazilishi kerakligi ko`rsatilgan.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son Qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish tartibi to`g`risida”gi Nizomning 32-bandida **texnik ko`rikni o`tkazish jadvali va uni o`tkazish bo`yicha kelgusi yil uchun komissiya tarkibi har yili 15 dekabrgacha Toshkent shahar hokimi, Qoraqalpog`iston Respublikasi va viloyatlarning tegishli tuman (shahar) hokimlarining qarori bilan tasdiqlanishi** belgilangan.

Shunga ko`ra, mazkur qaror loyihasi joriy yilning 29 noyabr kuni O`zbekiston Respublikasining **O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga** muhokama qilish va tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini baholash uchun joylashtirilganligi, 15 dekabr kuniga qadar esa qaror loyihasi bo`yicha takliflar kelib tushmagan.

Shuningdek, qaror loyihasi yuqorida qayd etilgan va boshqa normativ-huquqiy xujjatlarning talablariga, O`zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021 yil 24 fevraldagi 2-mh-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasini o`tkazish” nizomga muvfiq checklist to’ldirilgan.

Mazkur qaror loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korruptsiyaviy omillarni aniqlash metodikasi asosida korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o`tkazilganida korruptsiyaviy omillar aniqlanmadi.

Yuqoridagilarga asosan, tuman hokimining “Tumanda 2022 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish to`g`risida”gi qaror loyihasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi qonun, Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o`tkazish Qoidalari (ro`yxat raqami 3333, 19-mh-son, 2021 yil 18 noyabr) hamda boshqa qonun hujjatlariga zid emas.

Norin tuman hokimligining

bosh yuristkonsulti **A.Dadaboyev**